Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY YO‘LLARI

Xoliqova Bonuxon Ulug‘bek qizi
O‘zDSMI Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi)
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini rivojlantirishning amaliy yo‘llari yoritilgan. Unda turli ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan musiqiy faoliyatni tashkil etish, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish hamda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, musiqiy savodxonlikni shakllantirish orqali o‘quvchilarning ijodiy faolligi, kommunikativ ko‘nikmalari va ijtimoiy integratsiyasini qo‘llab-quvvatlash masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, musiqiy savodxonlik, maxsus ta’lim ehtiyojlari, musiqa ta’limi, pedagogik texnologiyalar, amaliy yondashuvlar, ijtimoiy integratsiya, ijodiy rivojlanish.

Annotatsiya: V dannoy statye osveshayutsya prakticheskiye puti razvitiya muzikalnoy gramotnosti uchashixsya v usloviyax inklyuzivnogo obrazovaniY. Rassmatrivayutsya voprosi organizatsii muzikalnoy deyatelnosti s obuchayushimisya, imeyushimi razlichniye obrazovatelniye potrebnosti, ispolzovaniya sovremennix pedagogicheskix podxodov i metodov razvitiya muzikalnix sposobnostey. Takje analiziruetsya rol muzikalnoy gramotnosti v podderjke tvorcheskoy aktivnosti, kommunikativnix navikov i sotsialnoy integratsii uchashixsY.

Klyucheviye slova: Inklyuzivnoye obrazovaniye, muzikalnaya gramotnost, osobiye obrazovatelniye potrebnosti, muzikalnoye obrazovaniye, pedagogicheskiye texnologii, prakticheskiye podxodi, sotsialnaya integratsiya, tvorcheskoye razvitiye.

Abstract: This article highlights practical ways of developing students’ musical literacy in an inclusive educational environment. It examines the organization of musical activities for learners with diverse educational needs, the use of modern pedagogical approaches, and methods for developing musical abilities. The article also discusses the role of musical literacy in supporting students’ creative activity, communication skills, and social integration.

KeyWords: Inclusive education, musical literacy, special educational needs, music education, pedagogical technologies, practical approaches, social integration, creative development.

Nogironligi bo‘lgan bolalar bilan musiqiy mashg‘ulotlarni tashkil etishda psixologik va pedagogik yondashuvlar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilishi zarur. Chunki bu jarayonda faqat bilim berish emas, balki o‘quvchilarning ruhiy holatini qo‘llab-quvvatlash, ularning ichki imkoniyatlarini ochish va ijtimoiy hayotga moslashuvini ta’minlash muhim hisoblanadi. Shu sababli o‘qituvchi har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etadi. Psixologik yondashuvning asosiy vazifasi — o‘quvchilarda ishonch, xotirjamlik va ijobiy kayfiyatni shakllantirishdir. Musiqa mashg‘ulotlari davomida bola o‘zini erkin his qilishi, xatodan qo‘rqmasligi va faol ishtirok etishi zarur. Shu bois o‘qituvchi samimiy muhit yaratishi, rag‘batlantiruvchi so‘zlardan foydalanishi va har bir kichik yutuqni qadrlashi muhimdir. Musiqa orqali bolalar o‘z his-tuyg‘ularini

ifoda etadi, bu esa ularning ruhiy holatini yengillashtiradi va ichki muvozanatni tiklashga yordam beradi. Psixologik yondashuvning asosiy vazifasi nogironligi bo‘lgan bolalarning ichki ruhiy holatini chuqur anglash, ularning hissiy ehtiyojlarini inobatga olish va musiqiy faoliyat orqali ularga ijobiy ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Bu yondashuvda o‘qituvchi har bir bolaning kayfiyati, qiziqishi, qo‘rquvi, ishonchi va o‘zini tutish xususiyatlarini diqqat bilan kuzatadi hamda shu asosda dars jarayonini moslashtiradi. Musiqa psixologik jihatdan bolaga tinchlik, xotirjamlik va ishonch bag‘ishlaydi, shu sababli u darsni faqat bilim berish vositasi emas, balki ruhiy qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida ham tashkil etadi. Psixologik yondashuv orqali o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Ko‘plab maxsus ehtiyojli bolalarda o‘zini past baholash, tortinchoqlik yoki faoliyatdan chekinish holatlari kuzatiladi. Musiqa mashg‘ulotlarida esa oddiy va muvaffaqiyatli bajariladigan topshiriqlar orqali ularda “men qila olaman” degan ichki ishonch paydo bo‘ladi. Bu esa bolaning nafaqat musiqiy, balki umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, psixologik yondashuvning yana bir muhim vazifasi — hissiy muvozanatni ta’minlashdir. Musiqa orqali bola o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etadi, ichki kechinmalarini tashqi faoliyatga chiqaradi. Bu jarayon asabiylikni kamaytiradi, ruhiy zo‘riqishni yengillashtiradi va ijobiy kayfiyatni shakllantiradi. Ayniqsa, sokin ohanglar va past diapazondagi tovushlar bolalarda tinchlanish, diqqatni jamlash va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Psixologik yondashuvda yana bir muhim jihat — individual yondashuvni ta’minlashdir. Har bir bolaning qabul qilish darajasi, eshitish sezgirligi, harakat faolligi va o‘rganish tezligi turlicha bo‘ladi. O‘qituvchi shu farqlarni hisobga olib, topshiriqlarni soddalashtiradi yoki murakkablashtiradi, mashg‘ulot sur’atini moslashtiradi. Natijada har bir o‘quvchi o‘z imkoniyati darajasida faol ishtirok etadi va o‘zini erkin his qiladi. Bundan tashqari, psixologik yondashuv bolalarda muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Musiqiy o‘yinlar, jamoaviy ijro va ritmik mashqlar orqali bolalar bir-birini tinglashni, navbat kutishni, hamkorlikda ishlashni o‘rganadi. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi

Pedagogik yondashuv esa ta’lim jarayonini tizimli va maqsadli tashkil etishga qaratilgan. Mashg‘ulotlar oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich olib boriladi. O‘qituvchi topshiriqlarni sodda va tushunarli qilib tushuntiradi, amaliy ko‘rsatmalar orqali bolalarning o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Shuningdek, musiqa tinglash, qo‘shiq aytish, cholg‘u chalish va ritmik harakatlar kabi turli faoliyatlar uyg‘un holda qo‘llaniladi. Bu esa o‘quvchilarning qiziqishini saqlab qolish va ularni darsga faol jalb etishda muhim rol o‘ynaydi.

Psixologik va pedagogik yondashuvlarning avfzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: Birinchidan, psixologik yondashuv o‘quvchilarning ruhiy holatini barqarorlashtiradi. Ular o‘zini xavfsiz his qiladi, bu esa dars jarayonida erkin ishtirok etishiga yordam beradi. Ikkinchidan, bu yondashuv o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi, ayniqsa o‘z imkoniyatiga ishonchi past bo‘lgan bolalar uchun katta ahamiyatga ega. Uchinchidan, musiqa orqali hissiy yengillik yuzaga keladi, bu esa o‘quvchilarning ichki zo‘riqishini kamaytiradi.

Pedagogik yondashuvning avfzalliklari esa ta’lim samaradorligini oshirish bilan bog‘liq.

1. Bosqichma-bosqich o‘rgatish usuli bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.
2. Takrorlash orqali ko‘nikmalar shakllanadi va mustahkamlanadi.

Shuningdek, turli usullardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va darsni jonli tashkil etishga yordam beradi. Bunday yondashuv orqali har bir bola o‘z imkoniyatiga mos ravishda rivojlanadi. Pedagogik yondashuvning asosiy vazifasi — nogironligi bo‘lgan bolalarga musiqiy bilim va ko‘nikmalarni tizimli, tushunarli hamda ularning imkoniyatlariga mos holda yetkazishdan iborat. Bu yondashuvda o‘qituvchi ta’lim jarayonini puxta rejalashtiradi, dars mazmunini bosqichma-bosqich tashkil etadi va har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini hisobga olgan holda metodlarni tanlaydi. Pedagogik yondashuvning markazida o‘quvchiga bilim berish bilan birga, uni faol ishtirokchi sifatida shakllantirish turadi.Pedagogik yondashuv orqali o‘quvchilarda musiqiy savodxonlikni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Bu jarayon tovushni farqlash, ritmni his qilish, oddiy kuy va

zarblarni ijro etish, musiqa elementlarini anglash kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi darsni sodda mashqlardan boshlab, asta-sekin murakkabroq faoliyatga o‘tkazadi. Shu tariqa o‘quvchi bilimni izchil ravishda o‘zlashtiradi va o‘z imkoniyatlariga mos rivojlanadi. Shuningdek, pedagogik yondashuvning muhim vazifalaridan biri — darsni moslashtirish va tabaqalashtirishdir. Har bir bolaning qobiliyati, qiziqishi va o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lganligi sababli, o‘qituvchi mashg‘ulotlarni turli darajalarda tashkil etadi. Masalan, ayrim o‘quvchilar oddiy ritmik zarblarni bajarish bilan shug‘ullansa, boshqalar qisqa kuylarni ijro etishi mumkin. Bu esa har bir o‘quvchining darsda faol qatnashishini ta’minlaydi. Pedagogik yondashuvda ko‘rgazmalilik va amaliy faoliyatga katta e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar musiqa elementlarini nafaqat eshitish, balki ko‘rish va bajarish orqali o‘zlashtiradi. Rangli belgilar, oddiy cholg‘ular, harakatli mashqlar va takroriy amaliy topshiriqlar bilimni mustahkamlashga yordam beradi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli bolalar uchun amaliy mashg‘ulotlar samarali hisoblanadi, chunki ular orqali bilim bevosita tajriba asosida o‘zlashtiriladi. Bundan tashqari, pedagogik yondashuvning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda mustaqil ishlash va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. O‘qituvchi bolalarni faqat tayyor bilimni qabul qilishga emas, balki musiqa orqali o‘z fikrini ifoda etishga, yangi ohanglar yaratishga, ijodiy yondashishga undaydi. Bu esa ularning tafakkurini kengaytiradi va faolligini oshiradi. Pedagogik yondashuv o‘quvchilarning bilimini baholash va rag‘batlantirishni ham o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi har bir kichik yutuqni e’tirof etib, o‘quvchini rag‘batlantiradi. Bu esa o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va uni yanada faol bo‘lishga undaydi. Xulosa qilib aytganda, pedagogik yondashuvning asosiy vazifasi — musiqiy ta’limni tizimli tashkil etish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularni bosqichma-bosqich rivojlantirish va musiqiy faoliyatga faol jalb etishdan iborat. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat musiqiy bilimga ega bo‘ladi, balki ularning umumiy rivojlanishi, mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlari ham shakllanadi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida musiqiy savodxonlikni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika va ta’lim nazariyasining eng dolzarb va muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi kunda ta’lim tizimida har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, turli imkoniyatlarga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlashda musiqa nafaqat bilim berish vositasi, balki kuchli tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va psixologik ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Musiqiy faoliyat orqali o‘quvchilarda hissiy barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, ijodiy fikrlash va o‘zini erkin ifoda etish ko‘nikmalari shakllanadi. Shu jihatdan qaraganda, inklyuziv ta’lim muhitida musiqiy savodxonlikni rivojlantirish nafaqat o‘quvchilarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirishga, balki ularning umumiy intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayon sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Musiqiy savodxonlikning inklyuziv ta’limdagi asosiy avfzalliklaridan biri uning o‘quvchilarning hissiy rivojlanishiga har tomonlama va tizimli ta’sir ko‘rsatishidir. Ma’lumki, musiqa insonning ichki dunyosiga bevosita ta’sir etuvchi kuchli vosita bo‘lib, u orqali bolalar o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish va ongli ravishda ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Inklyuziv ta’lim sharoitida bu jarayon alohida ahamiyat kasb etadi, chunki turli imkoniyatlarga ega bo‘lgan bolalarda hissiy barqarorlikni shakllantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Musiqiy faoliyat davomida o‘quvchilar turli ohanglar, ritmlar va qo‘shiqlar orqali o‘z kayfiyatini aks ettiradi, ichki kechinmalarini tashqi ifodaga chiqaradi va shu orqali ruhiy yengillik hosil qiladi. Bu esa ularning ichki zo‘riqishini kamaytiradi, salbiy hissiyotlarni bartaraf etishga yordam beradi hamda ijobiy ruhiy muhitni shakllantiradi. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan bolalarda bu jarayon ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, o‘z imkoniyatlariga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish va o‘zini jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida his etishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, musiqiy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarda hissiy sezgirlik, boshqalarning kayfiyatini anglash va unga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyati ham rivojlanadi. Bu esa ularning nafaqat shaxsiy rivojlanishiga, balki ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli moslashuviga ham

ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada o‘quvchilar dars jarayonida o‘zlarini erkinroq tutadi, o‘quv faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi va o‘z salohiyatini to‘liqroq namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, musiqiy savodxonlik ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida muhim o‘rin egallaydi. Inklyuziv ta’lim muhitida o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati alohida ahamiyatga ega bo‘lib, musiqiy mashg‘ulotlar aynan shu jarayonni tabiiy va samarali tarzda tashkil etish imkonini beradi. Guruh shaklida qo‘shiq kuylash, ritmik mashqlarni birgalikda bajarish va jamoaviy ijodiy faoliyat o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi. Mazkur jarayonda o‘quvchilar bir-birini tinglash, umumiy ritm va ohangga moslashish, jamoa bilan uyg‘un harakat qilish kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni egallaydi. Bu esa ularda o‘zaro hurmat, sabr-toqat, bir-birini tushunish va qo‘llab-quvvatlash kabi ijobiy sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, turli imkoniyatlarga ega bo‘lgan bolalar bir jamoada faoliyat olib borishi natijasida ularning ijtimoiy moslashuvi yaxshilanadi va ular o‘zlarini jamiyatning ajralmas qismi sifatida his eta boshlaydi. Shuningdek, musiqiy mashg‘ulotlar davomida yuzaga keladigan ijobiy ijtimoiy muhit o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ular o‘rtasida do‘stona munosabatlarni shakllantiradi va ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Natijada inklyuziv sinflarda sog‘lom psixologik muhit vujudga keladi, bu esa o‘quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Musiqiy savodxonlikning yana bir muhim avfzalligi — uning o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatishidir. Musiqiy faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan turli mashqlar, xususan, ritmik tuzilmalarni anglash, ohanglarni eslab qolish va ularni qayta ifodalash kabi jarayonlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi. Bu esa diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash va tafakkur jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Musiqa bilan bog‘liq faoliyat o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi, chunki ular tovushlar ketma-ketligini idrok etish, ularni taqqoslash va umumlashtirish jarayonida faol ishtirok etadi. Shu bilan birga, musiqiy mashg‘ulotlar bolalarning eshitish qobiliyatini takomillashtiradi, bu esa ularning o‘quv materiallarini tezroq va aniqroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bundan tashqari, musiqiy savodxonlik o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular musiqa orqali yangi g‘oyalarni ilgari surish, o‘z fikrini ifodalash va ijodiy faoliyatda erkin qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada o‘quvchilarning umumiy aqliy faolligi ortadi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi va boshqa fanlarni o‘zlashtirish darajasi ham sezilarli ravishda yaxshilanadi. Shu bilan birga, inklyuziv ta’lim jarayonida musiqiy savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirishda ayrim muammolar va cheklovlar ham mavjud bo‘lib, ular ta’lim samaradorligiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Eng avvalo, o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, qobiliyatlari va o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lgani sababli, dars jarayonini barcha uchun bir xil darajada samarali tashkil etish murakkablik tug‘diradi. Bu holat o‘qituvchidan yuqori darajada moslashuvchanlikni, har bir o‘quvchiga alohida yondashuvni va dars mazmunini doimiy ravishda moslashtirib borishni talab qiladi. Bundan tashqari, inklyuziv ta’lim sharoitida maxsus metodik ta’minotning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. YA’ni, barcha o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan o‘quv dasturlari, didaktik materiallar va moslashtirilgan musiqiy mashg‘ulotlar tizimi har doim ham yetarli emas. Bu esa o‘qituvchining ishini qiyinlashtiradi va ayrim hollarda o‘quv jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Yana bir muhim jihat — o‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim bo‘yicha kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘liq masalalardir. Musiqiy savodxonlikni turli imkoniyatga ega bo‘lgan bolalarga samarali o‘rgatish uchun o‘qituvchidan nafaqat umumiy pedagogik bilimlar, balki maxsus metodik yondashuvlar, psixologik bilimlar va amaliy ko‘nikmalar ham talab etiladi. Shu sababli, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ularni inklyuziv ta’lim sharoitida ishlashga tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, mazkur kamchiliklar inklyuziv ta’lim jarayonida musiqiy savodxonlikni to‘liq va samarali shakllantirishda ma’lum to‘siqlarni yuzaga keltiradi. Biroq, ushbu muammolarni ilmiy asoslangan yondashuvlar, zamonaviy metodlarni joriy etish va pedagogik faoliyatni takomillashtirish orqali bartaraf

etish mumkin. Inklyuziv ta’lim jarayonida musiqa mashg‘ulotlari bolalarning rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi. Musiqa orqali bolalarni darsga jalb qilish, ularning diqqatini jamlash va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, musiqa mashg‘ulotlari bolalarda hissiy barqarorlikni oshirish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va o‘zini ifoda etish imkoniyatini yaratadi. Musiqa yordamida o‘quvchilarda tinglash, takrorlash, ohangni anglash va ritmni his qilish kabi ko‘nikmalar rivojlantiriladi, bu esa ularning umumiy musiqiy bilimini oshiradi. Foydalari jihatidan qaraganda, musiqa mashg‘ulotlari inklyuziv ta’limda bir qancha ijobiy natijalarni beradi. Birinchidan, shaxsiy rivojlanish nuqtai nazaridan, musiqa bolalarning hissiy va ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi, ularda o‘zini ishonchli his qilish hissini kuchaytiradi. Ikkinchidan, ijtimoiy aloqalar nuqtai nazaridan, jamoaviy musiqa mashg‘ulotlari bolalarni bir-biri bilan muloqot qilishga, hamkorlik qilishga o‘rgatadi va sinfdagi farqlarni yumshatadi. Uchinchidan, o‘quv motivatsiyasi jihatidan, musiqa darsni qiziqarli qiladi, bolalar darsga faol qo‘shiladi va o‘zlarini erkin his qiladi. To‘rtinchidan, ijodiy fikrlash rivoji uchun, musiqa bolalarga o‘z fikrini ijodiy ifoda etishga imkon beradi, bu ularning umumiy ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshiradi. Shu bilan birga, musiqa mashg‘ulotlarining samaradorligi ba’zan metodik va pedagogik cheklovlar bilan chegaralanadi. Asosiy kamchiliklar qatorida metodik taminotning yetishmasligi, individual yondashuvning yetarli emasligi, resurslarning cheklanganligi va pedagogik malaka yetishmovchiligi mavjud. Inklyuziv sinflar uchun maxsus ishlab chiqilgan musiqa dasturlari va qo‘llanmalar kamligi o‘qituvchiga mashg‘ulotni samarali tashkil etishda qiyinchilik tug‘diradi. Har bir bolaning qobiliyati va ehtiyojlarini hisobga oladigan usullar yetarli darajada qo‘llanilmayotgani ba’zi bolalarning mashg‘ulotga to‘liq jalb qilinmasligiga olib keladi. Shu bilan birga, sinfda mavjud asboblar va vositalar cheklangan bo‘lsa, musiqa mashg‘ulotlarini to‘liq amalga oshirish qiyinlashadi. Ba’zi o‘qituvchilar esa inklyuziv sinflarda ishlash bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega emasligi sababli, mashg‘ulot samaradorligi kamayadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limda musiqiy savodxonlikning foyda va kamchiliklarni taqqoslaganda, musiqa mashg‘ulotlarining bolalarga ijobiy ta’siri aniq ko‘rinadi, ammo metodik va pedagogik cheklovlar jarayonni qisman sekinlashtiradi. Shu bois, inklyuziv ta’limdagi musiqa mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish uchun bir qancha tavsiyalar mavjud. Birinchidan, metodik qo‘llanmalarni kengaytirish va yangilash zarur; inklyuziv sinflarga mos, o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga oladigan maxsus musiqa dasturlari ishlab chiqilishi lozim. Ikkinchidan, o‘qituvchilarga mashg‘ulotni individual yondashuv va hissiy rag‘batlantirish usullarini o‘rgatish muhim. Uchinchidan, yordamchi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi; vizual va ovozli materiallar, ritmik qo‘shimchalar va o‘yinlar mashg‘ulotni qiziqarli qiladi. To‘rtinchidan, guruh va juftlik ishlari bolalarning bir-biri bilan muloqotini rag‘batlantiradi va ijtimoiy integratsiyani mustahkamlaydi. Shuningdek, doimiy kuzatuv va baholash mashg‘ulotning samaradorligini oshirish va kamchiliklarni bartaraf etishda muhim vosita hisoblanadi.

Shu tarzda, musiqa mashg‘ulotlarining foydalarini maksimal darajada oshirish va kamchiliklarini kamaytirish orqali inklyuziv ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Musiqa nafaqat bolalarning musiqiy bilimini oshiradi, balki ularning hissiy, ijtimoiy va aqliy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4. Elliott D.J. Music Matters: A Philosophy of Music Education. – New York: Oxford University Press, 1995. – 398 p.
5. Swanwick K. Teaching Music Musically. – London: Routledge, 1999. – 246 p.
6. McPherson G.E., Welch G.F. The Oxford Handbook of Music Education. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – 848 p.
7. Henley J. Music Education and Inclusive Practice // International Journal of Inclusive Education. – 2011. – Vol. 15. – № 6. – P. 615–628.
8. Florian L. The Sage Handbook of Special Education. – London: Sage Publications, 2014. – 904 p.
9. Yusupova D. Inklyuziv ta’limning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 180 b.
10. Maxkamov U. Musiqa pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 256 b.